

## KREDIT SHARTNOMA № \_\_\_\_\_ (Biznes-overdraft kredit mablag‘i ajratish bo‘yicha)

\_\_\_\_\_ yil  
(tuzilgan joy)

Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" ATB (bundan buyon matnlarda "Kreditor" deb nomlanadi) nomidan \_\_\_\_\_ yildagi № \_\_\_\_\_ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning \_\_\_\_\_ boshqaruvchisi/BXO boshlig‘i \_\_\_\_\_ bir tarafdin va (bundan buyon matnda «Qarz oluvchi» deb yuritiluvchi) \_\_\_\_\_ ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani (bundan buyon matnda shartnoma deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 Mazkur shartnomaga muvofiq kreditor qarz oluvchiga 12 oy muddatgacha kredit liniya ochish, xar biri 3 oy muddatdan oshmagan miqdorda kredit taqdim qilish majburiyatini, qarz oluvchi esa liniya miqdoridan kelib chiqib, mazkur shartnoma shartlariga muvofiq ta‘minot bilan ta‘minlash, liniya bo‘yicha olinishi nazarda tutilgan kreditlar tani, ular bo‘yicha hisoblangan foizlar, shartnomaga asosan yuzaga keladigan boshqa to‘lovlarni shartnomaga ilova qilingan qaytarish grafigiga asosan to‘lash majburiyatlarni oladi.

### 2. UMUMIY QOIDALAR

2.1 Mazkur shartnomaga asosan qarz oluvchi shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan miqdorgacha kredit olishi mumkin.

2.2 Kreditor shartnoma imzolanganidan 30 kalendar kuni davomida kreditni ajratishni o‘z zimmasiga oladi. Qarz oluvchi kredit olish xaqidagi murojaati bo‘yicha, Kreditoridan ijobiy qaror olgandan so‘ng, ajratilishi ko‘zda tutilgan kreditdan belgilangan muddat ichida foydalanmasa, kreditni olish huquqi va kreditorning uni ajratishga oid majburiyati shartnomaga muvofiq tugatiladi.

2.3 Ajratiladigan kredit mazkur shartnomaga asosan qiymatidan kelib chiqib, liniya doirasida har birining muddati 3 oydan oshmagan holda taqdim qilinadi.

2.4 Kredit shartnomasiga asosan o‘rnatilgan limit doirasida kredit liniyalaridan foydalanish muddati shartnoma imzolangan sanadan boshlab shartnoma tugashiga 3 oy qolgunicha amal qiladi. Bu muddat tugaganidan so‘ng qarz oluvchi kredit liniyalari (tranh) ochish kredit mablag‘ini olish huquqini yo‘qotadi.

2.5 Har bir transh qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan to‘lov topshiriqnomasi asosida ssuda hisobvarag‘idan qarz oluvchining talab qilib olinguncha hisobvarag‘iga o‘tkazish bilan ajratiladi. Kreditni ajratish sanasi kredit summasini qarz oluvchining talab qilib olinguncha hisobvarag‘iga o‘tkazilgan sana bo‘lib hisoblanadi.

2.6 Kredit shartnomaga asosan belgilangan limit doirasida dastlabki ajratilgan kredit (tranh) to‘liq so‘ndirilmaguncha keyingi transh bo‘yicha kredit mablag‘ini ajratilmaydi.

2.7 Kredit qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida beriladi.

2.8 Kredit \_\_\_\_\_ hisobidan ajratiladi.

2.9 Qarz oluvchi kreditor tomonidan taqdim etilgan kreditdan faqat xom-ashyo, tayyor mahsulotlar sotib olish, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun, kommunal, ijara, ish haqi, muddatli soliq

to'lovlarini amalga oshirish, bojxona to'lovlari, davlat boji, tenderda qatnashish uchun kafolat summasini to'lash maqsadlarida foydalanishni o'z zimmasiga oladi.

2.10 Qarz oluvchi kreditor tomonidan taqdim etilgan kreditdan quyidagi yo'nalishlarda foydalanmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi:

- a) Bank oldidagi mavjud qarzдорliklarni to'lash;
- b) Boshqa shaxslarga qarz mablag'larini taqdim qilish yoki to'lash;
- c) Qimmatli qog'ozlar, aksiyalar sotib olish;
- d) Dividend to'lovlarini amalga oshirish;
- e) Ish haqidan boshqa maqsadlarda hisobvarag'idan naqd pul ko'rinishida chiqim qilib olish;
- f) Yuridik shaxslar ustav fondiga ulush sifatida kiritish.

2.11 Qarz oluvchi va/yoki uchinchi shaxslar kredit bo'yicha quyidagi ta'minotlarni taqdim etadi:

### 3. SHARTNOMA BAHOSI

3.1 Shartnomaga asosan liniya miqdori \_\_\_\_\_ so'mni tashkil qiladi.

### 4. TASDIQLASH VA KAFOLATLAR BERISH

4.1 Qarz oluvchi yuridik shaxs–tadbirkorlik subyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan/ro'yxatdan o'tkazilgan, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy layoqatga egaligini tasdiqlaydi.

4.2 Qarz oluvchi kreditorga taqdim etgan kredit olish bilan bog'liq bo'lgan zaruriy hujjatlar haqiqiyliigi, ma'lumotlarning ishonchliligi va hujjatlarning nusxalari asliga to'g'riligini kafolatlaydi.

4.3 Qarz oluvchi mazkur shartnoma tuzilayotgan sanaga qadar bo'lgan va kreditor tomonidan mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi majburiyatlari haqidagi ma'lumotlarni kreditorga taqdim etadi.

4.4 Qarz oluvchi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkonini bermaydigan va kreditorga ma'lum qilmagan sud ishlarida da'vogar, javobgar yoki uchinchi shaxs sifatida ishtirok etmaydi.

4.5 Shartnoma tuzayotgan qarz oluvchi xato fikrlar, yolg'on, zo'ravonlik, tahdidlar, yomon niyatli kelishuv yoki og'ir holatlarga to'g'ri kelib qolishi ta'sirida emasligini tasdiqlaydi.

4.6 Tasdiqlash va kafolatlar berishga qarz oluvchi to'liq hajmda amal qilishi lozim. Shartnomada ko'zda tutilgan tasdiqlash va kafolatlar berishga amal qilinmagan yoki lozim darajada amal qilinmagan taqdirda kreditor qarz oluvchiga kredit taqdim etishdan bosh tortishga haqli.

4.7 Qarz oluvchi bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XVII bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda mijozning yuridik manzili \_\_\_\_\_, telefon raqami: \_\_\_\_\_ (vakilning uyali aloqa raqami).

4.8 Kreditor bilan aloqa bog'lash usuli: mazkur shartnomaning XVII bobida ko'rsatib o'tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 (bepul) hamda 1256 (pullik) raqamlar.

### 5. KREDITNI TO'LASH (QAYTARISH)

5.1 Qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlariga muvofiq qabul qilib olingan kredit

\_\_\_\_\_ gacha qaytarilishi lozim.

5.2 Kredit asosiy tani bo'yicha imtiyozli davr taqdim etilmaydi.

5.3 Qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlariga muvofiq ajratilgan kredit asosiy qismi va foizlar milliy valutada qaytarilishi lozim.

5.4 Shartnoma shartlariga muvofiq qarz oluvchi tomonidan olingan kredit u tomonidan shartnomaga ilova tariqasida belgilangan (kreditni tani va foizlarni to'lash jadvali) to'lov jadvaliga muvofiq qaytarilishi lozim. Kreditni to'lash va foizlarni to'lash jadvali shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

5.5 Qarz oluvchi kreditorni oldindan xabardor qilgan holda kreditni to'laligicha yoki bir qismini oldindan to'lashga haqli. Bunda kredit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar undirilmaydi.

5.6 Kreditning asosiy tani va foizlari \_\_\_\_\_ usulda to'lanadi.

## 6. KREDIT BO'YICHA FOIZLAR

6.1 Qarz oluvchi kreditdan foydalangani uchun kreditorga yillik \_\_\_\_\_  
(\_\_\_\_\_) miqdordagi \_\_\_\_\_ foizni to'laydi.

6.2 Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar yillik \_\_\_\_\_  
(\_\_\_\_\_) miqdorida kredit taqdim etilgan sanadan uni to'liq to'lashgacha bo'lgan sanaga qadar kunlik hisoblanadi. Foizlarni hisoblashda joriy kalendar yilida kreditdan foydalangan haqiqiy kunlar miqdoridan kelib chiqiladi.

6.3 Qarz oluvchi tomonidan kreditdan foydalanganlik uchun foizlar to'lov hujjatiga asosan to'lov jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda to'lanadi.

6.4 To'lov muddati kelganida Qarz oluvchi, kafil yoki uchinchi shaxslar tomonidan kelib tushgan mavjud mablag'lar agar oylik to'lov(muddati kelgan asosiy tani va foizlar)ga yetarli bo'lgan taqdirda quyidagi ketma-ketlikda kredit qarzdorlik uchun yo'naltiriladi ya'ni:

- a) hisoblangan penyalar(neustoykalar),jarimalar;
- b) muddati o'tgan foizlar;
- c) muddati o'tgan asosiy taniga yo'naltiradi.

6.5 kreditor shartnoma bo'yicha qarzdorlikni to'lash uchun qarz oluvchining hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini, shu jumladan, qarz oluvchi tomonidan bankka berilgan vakolat(oldindan berilgan aksept)asosida hisobdan chiqarilgan, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan, shu jumladan, kafillar tomonidan o'tkazib berilgan va to'lov hujjatida ko'rsatilgan to'lovning maqsadidan qat'iy nazar kelib tushgan mablag'lar kreditni qaytarish jadvali bo'yicha joriy oylik to'lovlar(muddati kelgan kredit tani va xisoblangan foizlar)ga yetarli bo'lmasa quyidagi navbatda yo'naltiriladi:

- a) birinchi navbatda – asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- b) ikkinchi navbatda – joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- c) uchinchi navbatda – neustoyka (jarima, penya);
- d) to'rtinchi navbatda – kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

Mazkur bandning kichik bandlari agar qonunchilik xujjatlarida to'lovlar ketma ketligi qat'iy ko'rsatilgan hollarda, qonunchilikdagi normalarga asosan ish tutiladi.

## 7. QARZ OLUVCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 7.1 Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- 7.1.1 garov ta'minoti yuzasidan baholovchi va sug'urta kompaniyasini o'z ixtiyoriga asosan tanlash;
- 7.1.2 kreditdan foydalanish, uni so'ndirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha kreditorning mansabdor shaxslariga murojaat qilish;
- 7.1.3 shartnoma va qo'shimcha shartnomalarni imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketish;
- 7.1.4 shartnoma yoki qo'shimcha shartnoma tuzilgandan keyin va pul mablag'lari olingunga qadar bo'lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish;
- 7.1.5 istalgan vaqtda jarima sanksiyalarsiz kreditni to'liq yoki qisman muddatidan oldin so'ndirish;
- 7.1.6 qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kreditning qolgan asosiy tani uchun qayta yangi grafik shakllantirishni talab qilish. Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.
- 7.1.7 kredit ajratish jarayoni yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talab va qoidalar to'g'risida kreditordan maslahatlar olish;
- 7.1.8 kreditordan shartnomada belgilangan shartlar asosida belgilangan miqdorda kredit mablag'ini o'z vaqtida ajratilishini talab qilish;
- 7.1.9 kreditor tomonidan shartnomada ko'zda tutilgan kredit uzrli sabablarsiz yoki kechiktirib ajratilgani uchun neustoyka to'lashni talab qilish;
- 7.1.10 kredit hisob raqamidagi aylanmalar to'g'risida ma'lumotlar olish;
- 7.1.11 qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan muzokaralar o'tkazish orqali, qo'llash.

### 7.2 Qarz oluvchining majburiyatlari:

- 7.2.1 ajratilgan kredit va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomaning ajralmas qismi sifatida ilova qilingan qaytarish jadvaliga asosan to'lash;
- 7.2.2 kredit mablag'laridan faqat shartnomaning 2.8-bandida ko'rsatilgan maqsadlar doirasida foydalanish, shuningdek, shartnomaning 2.9-bandida ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanmaslik;
- 7.2.3 kreditni olishga va undan foydalanishga bevosita aloqador bo'lgan moliyaviy hisobotlar, shartnomalar va boshqa hujjatlar bilan kreditorning to'siqsiz tanishishiga imkon berish;
- 7.2.4 kreditorga to'lov muddati kelganda qarz oluvchining barcha (har qanday) hisobvaraqlaridan oldindan berilgan aksept bilan to'lov hujjati (to'lov talabnomasi yoki memorial order) orqali shartnomadan kelib chiqadigan har qanday majburiyatlarni to'lash uchun pul mablag'larini hisobdan chiqarish huquqini berish (neustoyka ham shular jumlasidan). Qo'yilgan talabnoma mazkur shartnomaga asosan qarz oluvchi tomonidan akseptlangan hisoblanadi.;
- 7.2.5 o'zining mulkchilik yoki egalik (tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi, ta'sischilar, boshqaruv organlaridagi tarkibiy o'zgartirishlar va boshqalar) shakli o'zgarishi, qayta tashkil etilishi yoki faoliyatining to'xtatilishi, shuningdek, joylashgan manzilining o'zgarishi, faoliyat yuritishi uchun ta'sir etuvchi litsenziya va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarining bekor qilinganligi, amal qilish muddatlari tugaganligi, to'xtatilganligi, qarz oluvchi bilan aloqa o'rnatishda foydalanadigan aloqa ma'lumotlari hamda aloqa usullarining o'zgarishi xaqida kreditorni 10 kun avval yozma ravishda xabardor qilish;

7.2.6 o'zining moliyaviy yoki mol-mulkiga oid holatini yomonlashtiradigan, uning to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan faktlar, shuningdek, ko'rsatilgan holatlarni bartaraf etish uchun ko'rilayotgan choralar haqida kreditorga yozma shaklda zudlik bilan xabar berish;

7.2.7 begonalashtirilayotgan mol-mulk qiymati qarz oluvchi aktivlari balans qiymatining 25 % dan ortiq bo'lgan va qarz oluvchiga egalik huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk boshqa shaxsning ixtiyoriga o'tayotgani haqida kreditorni oldindan yozma shaklda xabardor qilish;

7.2.8 kreditorni qarz oluvchi tomonidan ochiladigan barcha hisobvaraqlari va boshqa kredit tashkilotlaridan jalb qilinayotgan kreditlari haqida tegishli holat ro'y berishidan va/yoki tegishli harakat amalga oshirilishidan 5 ish kuni davomida xabardor qilish;

7.2.9 hisobotlar uchun qonunchilik tomonidan o'rnatilgan muddatda kreditorga balans manbalari ko'rsatilgan va tegishli ma'lumotnomalar bilan birga moliyaviy va statistik hisobotlarni taqdim etish. Kreditorning so'roviga ko'ra, kreditor qarz oluvchining moliyaviy holatidan kelib chiqib talab qilishi mumkin bo'lgan barcha zarur ma'lumot va hujjatlarni, kredit mablag'larini maqsadli ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (shartnoma, hisobvaraqa faktura, yuk xati, bojxona yuk deklaratsiyasi va boshqalar) belgilangan muddatlarda kreditorga taqdim etilishini ta'minlash, shuningdek, 5 ish kuni davomida kredit va unga hisoblangan foizni vaqtida va to'laligicha to'lashga ta'sir ko'rsatadigan boshqa holatlar haqida kreditorni xabardor qilish;

7.2.10 shartnoma imzolangan sanadan 5 ish kundan kechikmasdan *{keraksizi istisno qilinsin}*:

a) kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yish uchun *{kychap yoki ko'chmas mulk}*ka tegishli zarur hujjatlarni kreditorga taqdim etish yoki ularni uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilishini ta'minlash;

b) shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash uchun garov/ipoteka haqida shartnoma tuzish yoki shartnoma tuzishni ta'minlash;

c) shartnomaga asosan kredit ta'minotiga oid barcha talablarni bajarish, jumladan, kredit ta'minoti sifatida taqdim qilinayotgan mol-mulklarni (yoki mulkiy huquqlarni) kredit muddatiga sug'urta qilish, garov shartnomalarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirish, vakolatli organlarda ro'yxatdan o'tkazish hamda taqiq qo'yish yoki ta'minot sifatida kafillik taqdim qilinayotgan bo'lsa, kafillik shartnomalarini qonuniy tartibda rasmiylashtirish;

d) ipoteka shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha barcha harakatlarni amalga oshirishda kreditorga barcha zaruriy yordamni ko'rsatish (barcha zarur hujjatlarni taqdim etish ham shu jumladan).

7.2.11 ajratilgan kreditlar uchun 125 foizdan kam bo'lmagan qiymatdagi likvidli bo'lgan ta'minot turlarini taqdim qiladi. Kreditor tomonidan monitoring, undiruv davomida yoki boshqa sabablarga ko'ra qarz oluvchi tomonidan taqdim qilingan ta'minot kredit majburiyatlarini qoplashga yetarli emas, deb topilgan taqdirda, yetarlicha miqdorda qo'shimcha ta'minot taqdim qiladi hamda uni tegishli tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlaydi;

7.2.12 mazkur shartnoma asosida xorijiy kredit liniyalari hisobidan kredit mablag'lari ajratilgan taqdirda, ushbu kredit mablag'lari hisobiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'zlashtirilishi haqidagi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kredit sifatida to'liq hajmda amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda davlat statistika hisoboti shakllarida qat'iy tartibda aks ettiradi;

7.2.13 moliyalashtirilayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida mijoz tomonidan tasdiqlangan "atrof-muhit va ijtimoiy xatarlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar"

rejasini o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini oladi;

7.2.14 kreditlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga amal qilish majburiyatini oladi, shu jumladan:

- a) ish joyidagi xavfsizlik normalari;
- b) bolalar mehnatining yo'qligi;
- c) ishchilar bandligiga oid kamsitishlarning yo'qligi;
- d) majburiy mehnatning yo'qligi.

7.2.15 Qarz oluvchi o'z mablag'lari (kapitali) kamayishiga olib keladigan operatsiyalarni (dividend to'lash, ustav kapitalini kamaytirish va boshqalar) bankning tegishli roziligini olgandan so'nggina amalga oshiradi.

## **8. KREDITORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **8.1 Kreditor quyidagi huquqlarga ega:**

8.1.1 kreditlash jarayonida kreditor qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik holatini tekshirishga va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni ta'minlash uchun qabul qilingan garov predmetining haqiqiy holatini tekshirish;

8.1.2 qarz oluvchini lozim darajada tekshirish bilan bog'liq bo'lgan to'liq yoki qisman xorijiy tilda tuzilgan hujjatlar davlat tiliga yoki rus tiliga tarjimasini bilan talab qilish, kreditni so'ndirish jarayonida gumonli va (yoki) shubhali operatsiyalar alomatlari mavjud operatsiyalar bajarilganda operatsiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni, jumladan pul mablag'lari manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yuzasidan mijozga murojaat qilish hamda taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to'g'riligiga gumon yoki boshqa zarurat paydo bo'lgan taqdirda, tanishish uchun hujjatlarning asl nusxalari taqdim qilinishini talab qilish;

8.1.3 qarz oluvchi tomonidan atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda, qarz oluvchi joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha o'rganish, yuridik shaxs mijozning boshqaruv organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan shaxs o'zining joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha mavjud bo'lmaganida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda kredit ajratishni to'xtatib qo'yish;

8.1.4 kreditor shartnomada ko'rsatilgan holatlarga oydinlik kiritish uchun qarz oluvchidan har qanday ma'lumotni so'rash, tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishini talab qilish, shuningdek, boshqa harakatlarni amalga oshirish;

8.1.5 kredit ta'minotiga oid barcha talablar bajarilgach, kredit summasini ajratish;

8.1.6 tegishli to'lov muddatlari buzilganda, kreditor shartnoma bo'yicha kredit tani, kreditdan foydalanganlik uchun foizlar va boshqa to'lovlarni to'lov hujjatlari (to'lov talabnomasi, memorial order) orqali undirib olish;

8.1.7 liniya doirasida kredit ajratilganda, kreditor quyidagi holatlardan biri yuz bergan taqdirda, liniya doirasida kredit taqdim qilishni to'xtadi:

- a) qarz oluvchi mazkur shartnoma hamda alohida shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni to'liq o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarilmaganida;
- b) qarz oluvchining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi muddati o'tgan debitorlik qarzdorliklari mavjud bo'lganda;
- c) muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik qarzlari mavjud bo'lganda;
- d) ta'minotning bozor bahosi majburiyatlarni kamida 125 foiz qoplashi uchun yetarli



bo'lmaganda;

e) qarz oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati yomonlashganligi;

f) bank rozilgisiz uchinchi shaxslarga kafillik yoki kafolat berilishi;

g) bank rozilgisiz boshqa bank yoki xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarz va boshqa majburiyatlarning olinishi;

h) ta'minot holatining yomonlashishi, uning o'g'irlanishi, talon-toroj qilinishi, likvidligining pasayishi, bozor konyunkturasi narxlarining kamida 25 foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida kredit ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi, basharti ta'minotni o'zgartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha bank talabining bajarilmasligi;

i) kredit monitoringidan bo'yin tovlashlik yoki bank xodimlari (jalb qilingan mutaxassislar)ni monitoring o'tkazishiga har qanday usullar bilan to'sqinlik qilishi;

j) bankka ushbu shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmasligi yoki haqqoniy bo'lmagan hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishi;

k) kredit va unga hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilishi;

l) kredit va unga hisoblangan foizlarni muntazam ravishda kechiktirib to'lanishi, ya'ni o'n ikki oy davomida mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida qayd etilgan to'lov muddatini uch va undan ortiq marotaba buzilishi;

m) kreditlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida shartnomaning 7.2.13 bandi talablarining buzilganligi;

n) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki sud tomonidan bank litsenziyasi chaqirib olinganda, ayrim bank operatsiyalari to'xtatilganda, litsenziya amal qilishi vaqtincha to'xtatilishi oqibatida vaziyatning jiddiy o'zgarishi natijasida.

8.1.8 Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 13.4-bandida ko'rsatilgan shartnomani jiddiy buzish holatlari sodir qilinganligi aniqlagan taqdirda, kreditor shartnomani muddatidan oldin bir tomonlama yoki sud tartibida bekor qilib, kredit qarzdorliklarini qoplash uchun undiruvni kredit ta'minotiga qaratishga haqli;

8.1.9 qarz oluvchi shartnomada belgilangan muddatda qarz summasini muddatida qaytarishga qodir emasligidan aniq-ravshan dalolat beruvchi holatlar aniqlanganda, kreditor kreditni taqdim etish majburiyatidan voz kechish;

8.1.10 qarz oluvchi kredit shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzganda, kreditor kredit shartnomasida nazarda tutilgan usulda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini iste'molchiga yetkazishga haqli;

8.1.11 qarz oluvchi – yakka tartibdagi tadbirkorning o'limida yoki qarz oluvchi – yuridik shaxsning qayta tuzilishida kreditor qarz oluvchining huquqiy vorisidan kredit summasini muddatidan oldin qaytarish va hisoblangan foizlarni to'lash hamda mazkur shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan boshqa to'lovlarni amalga oshirishni talab qilishga haqli.

## **8.2 Kreditorning majburiyatlari:**

8.2.1 qarz oluvchi tomonidan shartnomaga asosan kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur qarz bo'yicha garovda turgan mulkni taqiqdandan bepul chiqarish va garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan kreditorning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestridan bepul chiqarish;

8.2.2 qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan qarz

oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuborish;

8.2.3 kredit shartnomasi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, qarz oluvchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (etti) kalendar kuni davomida qarz oluvchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, qarz oluvchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida (taqdim etilgan so'ndirish jadvalidan kelib chiqqan holda) xabar berish;

8.2.4 Qarz oluvchi kreditning joriy to'lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' to'lagan va ushbu mablag'ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilgan taqdirda kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirishi va Qarz oluvchiga taqdim etilishi. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo'qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi.

8.2.5 kredit shartnomasining shartlariga qarz oluvchining huquqlarini cheklanishiga va/yoki majburiyatlarini oshirilishiga olib keluvchi o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritmaslik.

## **9. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

9.1 Kreditor kreditni asossiz ravishda o'z vaqtida ajratmagan taqdirda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun qarz oluvchiga kreditning kechiktirilgan summasidan 0,2 foiz hajmida penya to'lash. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

9.2 Shartnoma doirasida kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash uchun qarz oluvchi mazkur shartnomaning 2.10-bandida qayd etilgan ta'minotlarni taqdim etadi yoki taqdim etilishi yuzasidan shartnomalar tuzilishini ta'minlaydi.

9.3 Qarz oluvchi kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanganligi aniqlansa, maqsadsiz ishlatilgan kredit mablag'i summasiga nisbatan 25 foiz miqdorida bir marotabalik jarima to'laydi.

9.4 Qarz oluvchi tomonidan olingan kredit qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda to'lanmagan taqdirda, to'lov muddati o'tgan kundan boshlab, muddati o'tgan kredit summaga nisbatan belgilangan foiz stavkasi 1,5 (bir butun o'ndan besh) barobarga oshirilgan holda hisoblab undiriladi.

Qarz oluvchi kredit to'lovlarini o'z vaqtida to'lamagan hamda ular yuzasidan muddati o'tgan qarzlarni yuzaga kelgan hollarda to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun bankka muddati o'tgan kredit qarzdorligiga nisbatan 0,2 foiz, muddati o'tgan foiz to'lovlariga nisbatan 0,2 foiz miqdorida penya to'laydi.

Penya qarz oluvchi tomonidan muddati o'tkazib yuborilgan summadan to'lov amalga oshirilishi kerak bo'lgan kundan qarz oluvchi tomonidan muddati o'tgan majburiyat bajarilgunga qadar hisoblanadi. Hisoblangan jami penya miqdori bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan majburiyatning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

## **10. SHARTNOMA BO'YICHA HUQUQLARDAN VOZ KECHISH**

10.1 Kreditor kredit bo'yicha talab qilish huquqidan voz kechilgan taqdirda uchinchi shaxslarga, yuridik va moliyaviy maslahatchilarga bank sirini tashkil qiladigan, qarz oluvchi va uning operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishga haqli.

10.2 Qarz oluvchi kreditor bilan kelishmagan holda o‘z huquqlaridan voz kechish va shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini qanday shaklda bo‘lmasin uchinchi shaxslarga topshirishga, o‘tkazishga haqli emas.

## **11. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH**

11.1 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi.

11.2 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta’sir o‘tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo‘yicha taklifini rad qilishi lozim.

11.3 Agar shartnoma taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog‘liq korrupsion harakat sodir etilganligi to‘g‘risida ma’lumot, shubha, shubhaga asos bo‘luvchi dalilga ega bo‘lsa, bu to‘g‘risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

11.4 Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to‘g‘risida tasdiqqa ega bo‘lgunicha ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishni to‘xtatib turish huquqiga ega.

11.5 Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini shartnoma shartlarini bajarishda o‘ziga og‘dirib olgan taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

## **12. BOSHQA SHARTLAR**

12.1 Qarz oluvchining tegishli so‘rovi bankda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida qarz oluvchi tomonidan berilgan ariza va unga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda bir ish kuni ichida kredit shartnomasi bo‘yicha qarz oluvchi tomonidan majburiyatlari to‘liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

12.2 Qarz oluvchi kredit majburiyatlarini bajarishni ta’minlash uchun qilingan barcha xarajatlarni to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

12.3 Majburiyatlarini buzgan taraf shartnomada ko‘zda tutilgan javobgarlikka qo‘shimcha ravishda boshqa tarafga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

12.4 Qarz oluvchi shartnoma bo‘yicha pul majburiyatlari lozim darajada bajarilishiga barcha mol-mulki, aktivlari va qarz oluvchi tomonidan shartnoma bo‘yicha majburiyatlari to‘liq yoki qisman bajarilmaganida haqiqiy qarzdorlik summasini undirishga qaratilishi mumkin bo‘lgan banklardagi hamma hisobvaraqlaridagi mablag‘lari, shuningdek, shartnoma bajarilishi bilan bog‘liq barcha xarajatlar, shu jumladan sud va boshqa xarajatlar uchun javobgar bo‘lishini tasdiqlaydi va kafolat beradi.

12.5 Kredit mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayotgan halqaro tranzaksiyalar O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida boshqa davlatlar qonun hujjatlari doirasida to‘xtatib yoki ishga solinmay (muzlatib) qo‘yilganda bank javobgar hisoblanmaydi va bu mijozni kredit majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

12.6 Garov predmeti sifatida taqdim etilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undiriladi va u ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinadi (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

12.7 Qarz oluvchining xorijiy valutada kredit olishga bo‘lgan tanlovi va bunday tanlovga ko‘ra

xorijiy valuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valutada olingan kredit bo'yicha milliy valutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanadi.

12.8 Taraflar tomonidan bir-biriga jo'natiladigan har qanday xabarnoma, talabnoma yoki boshqa xatlar yozma shaklda amalga oshirilishi shart. Bunday xabarnoma yoki xat pochta, xabarnomani olganini tasdiqlovchi buyurtma xat, faks, elektron manzil orqali pochta va elektron manzilga yoki shartnomada ko'rsatilgan faks raqamiga yo'llangan xabarnomalar lozim darajada jo'natilgan deb hisoblanadi. Pochta xabari/xati pochtdan ko'rsatilgan manzilda oluvchi shaxs yo'qligi tufayli belgisi bilan qaytarilgan hollarda ham jo'natilgan, deb hisoblanadi.

12.9 Shartnomani bajarilishida taraflar mazkur shartnoma shartlariga hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga tayanishadi.

12.10 Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so'ng 1 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma'lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o'tkazishga mijoz o'z roziligini beradi.

12.11 Qarz oluvchi to'lov jadvali asosida kredit qarzdorliklari bo'yicha telefon qo'ng'iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Qarz oluvchi bergan boshqa yashash manzillarga yuborilishiga rozilik beradi.

### **13. SHARTNOMANING KUCHGA KIRISHI, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI**

13.1 Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi bankda, ikkinchi nusxasi qarz oluvchida saqlanadi. Qarz oluvchi yoki uning vakolatli vakiliga shartnoma imzolangan kunda uning bitta asl nusxasi taqdim etiladi.

13.2 Shartnoma taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

13.3 Shartnomaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi kelishuv yozma shaklda tuziladi va taraflar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

13.4 Qarz oluvchi tomonidan quyidagi holatlardan hech bo'lmasa bittasiga yo'l qo'yilgan taqdirda shartnomani jiddiy buzish deb hisoblanadi va bunda kreditor shartnomani, qo'shimcha shartnomani bir taraflama yoki sud tartibida muddatidan oldin bekor qilishi hamda kredit va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarib olishi mumkin:

- a) kreditning maqsadsiz ishlatilganligi (bunda kreditor tomonidan ajratilgan kredit mablag'ining maqsadsiz ishlatilgan qismi muddatidan oldin qaytariladi) yoki kredit mablag'ini maqsadli ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ushbu hujjatlar rasmiylashtirilgan sanadan 10 kun muddat ichida kreditorga taqdim etilmasa;
- b) qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlarini bajarilmasligi, shartnomada ko'rsatilgan tasdiqlash va kafolatlarning buzilishi;
- c) qarz oluvchi yoki kafilning moliyaviy holati yomonlashganligi;
- d) kreditor rozilgisiz uchinchi shaxslarga kafillik yoki kafolat berilishi;
- e) kreditor rozilgisiz boshqa bank yoki xo'jalik yurituvchi subyektlardan qarz va boshqa majburiyatlarning olinishi;
- f) ta'minot holatining yomonlashishi, uning o'g'irlanishi, talon-toroj qilinishi, likvidligining pasayishi, bozor konyunkturasi narxlarining kamida 25 foizga pasayib ketishi yoki boshqacha holatlar natijasida kredit ta'minlanmay qolish xavfining vujudga kelishi,

basharti ta'minotni o'zgartirish yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish bo'yicha kreditor talabining bajarilmasligi;

g) kredit monitoringidan bo'yin tovlashlik yoki kreditor xodimlari(jalb qilingan mutaxassislar)ni monitoring o'tkazishiga har qanday usullar bilan to'sqinlik qilishi;

h) kreditorga ushbu shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmasligi yoki haqqoniy bo'lmagan hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim etilishi;

i) kredit va unga hisoblangan foizlarni shartnoma va qo'shimcha shartnomada belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilishi;

j) kredit va unga hisoblangan foizlarni muntazam ravishda kechiktirib to'lanishi, ya'ni o'n ikki oy davomida mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida qayd etilgan to'lov muddatini uch va undan ortiq marotaba buzilishi;

k) kreditlanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi jarayonida shartnomaning 7.2.13 bandi talablarining buzilganligi.

#### **14. MAXFIYLIK**

14.1 Shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

14.2 Shartnomani tuzish va undan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni ikkinchi taraf axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

14.3 Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda uning muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil davomida amal qiladi.

14.4 Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

14.5 Kreditor o'z huquqlari va manfaatlari yoki ularni himoya qilish maqsadida qarz oluvchi kreditorga qarz oluvchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish (topshirish) uchun so'zsiz roziligini bildirgan hisoblanadi.

14.6 Qarz oluvchi kreditorga shartnomada ko'rsatilgan yoki shartnoma tuzilishi va bajarilishida kreditorga taqdim etilgan qarz oluvchining barcha ma'lumotlari bilan ishlash va topshirishga mazkur shartnomaga asosan roziligini tasdiqlaydi. Shu jumladan, shartnoma bo'yicha huquqiy vorislik tartibida kreditorning huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tganda, ularni uchinchi shaxsga topshirishga ham rozilik beradi. Kafil va yoki mulkiy kafil bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish qarz oluvchining qonun bilan muhofaza qilinadigan bank va boshqa sirlarining buzilishi bo'lib hisoblanmasligiga mazkur shartnomaga binoan roziligini bildirgan hisoblanadi.

#### **15. FORS-MAJOR**

15.1 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, Bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (xujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

15.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

15.3 Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

## **16. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

16.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar.

16.2 O‘zaro kelishuv imkoniyati bo‘lmaganda, huquqi buzilgan taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko‘rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

16.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xatini tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

16.4 Kelishuv yo‘li bilan hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda kreditorning filiali/bo‘linmasi joylashgan hududdagi sudga hal etiladi.

## **17. TARAFLARNING QAYD ETISH MA'LUMOTLARI VA IMZOLARI**

--	--